ISNN:2181-1296

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

# ILMIY AXBOROTNOMA

## НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
## SCIENTIFIC JOURNAL

## GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (156)
2026

ISSN 2181-1296

# ILMIY AXBOROTNOMA

## НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

**2026-yil, 2-son (156/2) GUMANITAR FANLAR SERIYASI**

**Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Siyosiy fanlar, O‘qitish metodikasi, Filologiya, Pedagogika, Sotsiologiya, Psixologiya**

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

**BOSH MUHARRIR** **R.I.XALMURADOV, t.f.d., professor**
**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:** **H.A.XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**

**TAHRIRIYAT KENGASHI:**

| | | | |
|---|---|---|---|
| M.Q.Muhiddinov | -f.f.d., professor (SamDU) | B.E.Ergashev | -t.f.d., professor (SamDU) |
| Stefano Benazzi | -Bolonya universiteti professori (Italiya) | S.A.Karimov | -f. f. d., professor (SamDU) |
| Simone Mantelini | -Bolonya universiteti professori (Italiya) | M.X.Lutfullayev | -p.f.d.. professor (SamDU) |
| Sh.Y.Ziyodov | -i.f.d. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi) | A.R.Samadov | -fal. f.d., professor (SamDU) |
| N.U.Arabov | -i.f.d., professor (SamDU) | Sh.A.Hasanov | -f.f.d., professor (SamDU) |
| Hiroaki Huziie | -Osaka universiteti professori (Yaponiya) | B.S.G‘oyibov | -t.f.d., (SamDU) |
| B.O.To‘rayev | -fal. f.d., professor (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy- | G.B.Normurodova | -t.f.d., (SamDU) |
| A.B.Pardayev | -f. f.d., professor (SamDU) | F.Sh.Rashidova | -t.f.f.d., dotsent (SamDU) |
| O.Yusupova | -f.f.n., dotsent (SamDU) | D.Q.Usmonova | -i.f.n., dotsent (SamDU) |
| O.Qodirov | -p.f.n., dotsent (SamDU) | N.A.Isakova | -f.f.n., dotsent (SamDU) |

**Obuna indeksi** – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun- **5584**

# M U N D A R I J A
# C O N T E N T S


| № | Maqola nomi | Article title | Bet/page |
|---|---|---|---|
| **1** | Samarqandning Temuriylar sulolasi davridagi evolyutsiyasi, uning sivilizatsiyalarga o‘zaro ta’siri va uyg‘unlashuvi<br>**Keremu N.** | The evolution of samarkand during the timurid dynasty and the interaction and fusion of its civilizations<br>**Keremu N.** | **5-11** |
| **2** | Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyasida muallif uslubiga lingvopoetik jihatdan yondashuv<br>**Safarova D.B.** | A Linguopoetic Approach to the Authorial Style in Nazar Eshonqul’s Short Story “Bepoyon osmon” (The Boundless Sky”)<br>**Safarova D.B.** | **12-15** |
| **3** | Ingliz va o‘zbek tillarida neologizmlarning tasnifi va ularning til tizimidagi o‘rni<br>**Pardayeva N.B.** | Classification of neologisms in english and uzbek languages and their role in the language system<br>**Pardaeva N.B.** | **16-20** |
| **4** | O‘rta asrlarda sharq va g‘arbiy yevropa mamlakatlaridagi davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilmalarining qiyosiy tahlili<br>**Abdullayev A.G.** | A comparative analysis of public administration and social structures in the countries of Eastern and Western Europe in the Middle Ages<br>**Abdullaev A.G.** | **21-27** |
| **5** | Davlat ekologik ekspertizasi tizimining shakllanish tarixi va uning rivojlanish bosqichlari<br>**O‘tayev O‘. Ch.** | History of the formation of the state ecological expertise system and its development stages<br>**Utaev U. Ch.** | **28-30** |
| **6** | Samkomstarisning Samarqanddagi arxeologik tadqiqotlari va muzey fondlari shakllanishiga qo‘shgan hissasi<br>**Yunusov M.** | The contribution of samkomstaris to archaeological research in Samarkand and to the formation of museum collections<br>**Yunusov M.** | **31-36** |
| **7** | 7-9-sinf o‘quvchilarining stem kompetensiyalarini baholash: spetsifikatsiya, mezonlar va kpi indikatorlari<br>**Aliyeva X.Sh.** | Assessment of Stem competencies of 7-9 grade students: specification, criteria and kpi indicators<br>**Alieva Kh.Sh.** | **37-42** |
| **8** | Raqamli tibbiy ta’limda talabalarda profilaktik immun madaniyatni rivojlantirish texnologiyalari<br>**Mirzakarimova D.B.** | Technologies for the development of preventive immune culture in digital medical education students<br>**Mirzakarimova D.B.** | **43-49** |
| **9** | 10-12 yoshli kurashchilarda egiluvchanlik sifatining kurash texnikasini o‘zlashtirish samaradorligiga ta’siri<br>**Toshmurodov O.** | The effect of flexibility on the efficiency of kurash technique acquisition in 10–12-year-old kurash athletes<br>**Toshmurodov O.** | **50-57** |
| **10** | Влияние государственной политики развития спорта (в контексте «нового Узбекистана») на мотивацию учащихся спортивных школ<br>**Мадаминов Б.Ш.** | The influence of state policy on sports development (in the context of "New Uzbekistan") on the motivation of students in sports schools<br>**Madaminov B.Sh.** | **58-62** |
| **11** | Трансформация и калькирование иронических фразеологических единиц в русском и узбекском языках<br>**Тошбекова Д.И.** | Transformation and Calquing of Ironic Phraseological Units in Russian and Uzbek<br>**Toshbekova D.I.** | **63-68** |
| **12** | Объективная и субъективная модальность в русском и узбекском языках<br>**Усманова С.Ю.** | Objective and subjective modality in Russian and Uzbek languages<br>**Usmanova S.Yu.** | **69-76** |
| **13** | Образ женщин в произведениях Ч. Айтматова<br>**Хаитова Ф.С.** | The Image of Women in the Works of Ch. Aitmatov<br>**Khaitova F.S.** | **77-81** |
| **14** | Voleybol murabbiylarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish afzalligi<br>**Boltayev Z.B.** | The advantage of using modern pedagogical technologies in the process of training volleyball coaches<br>**Boltaev Z.B.** | **82-87** |

| № | Maqola nomi | Article title | Bet/page |
|---|---|---|---|
| **15** | Bo‘lajak shifokorlarda klinik-diagnostik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik modeli va raqamli ta’lim<br>**Zokirov M.M.** | Pedagogical model for developing clinical-diagnostic competence in future physicians and digital educational technologies<br>**Zokirov M.M.** | **88-93** |
| **16** | Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (tika)ning tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari hamda tashkiliy-siyosiy asoslari<br>**Isadjanov B.I.** | The Establishment and Development of the Turkish Cooperation and Coordination Agency (TIKA), as well as its Organizational and Political Foundations<br>**Isadjanov B.I.** | **94-98** |
| **17** | Ingliz gazeta sarlavhalarining tarjima xususiyatlari: lingvostilistik tahlil<br>**Husanova Sh.Z., Isakova N.A.** | Translation features of English newspaper headlines: linguistic-stylistic analysis<br>**Husanova Sh.Z., Isakova N.A.** | **99-103** |
| **18** | Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda 4k modeli orqali fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish<br>**Gadayev O.Y., Norkulova J.S.** | Developing thinking and creativity through the 4k model in teaching mother tongue in primary grades<br>**Gadayev O.Y., Norkulova J.S.** | **104-108** |
| **19** | Raqamli demokratiya sharoitida legitimlik va fuqarolik faolligining konfiguratsiyasi<br>**Muminjonova U.X.** | Configuration of legitimacy and citizenship in the digital democracy<br>**Muminjonova U.X.** | **109-113** |
| **20** | Simulyatsion va raqamli ta’lim muhitida jarrohlik fanini o‘qitishda amaliy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasi<br>**Abduvoxidov A.A.** | Technology for developing practical professional competencies in teaching surgery within a simulation-based and digital learning environment<br>**Abduvoxidov A.A.** | **114-119** |
| **21** | Shoshilinch tibbiy yordamda travmatologik holatlarni sun’iy intellekt asosida erta triaj qilish va klinik qaror qabul qilish samaradorligini oshirish metodikasi<br>**Xolmatov A.A.** | Methodology for improving the efficiency of early triage and clinical decision-making in traumatological conditions in emergency medical care based on artificial intelligence<br>**Xolmatov A.A.** | **120-125** |
| **22** | Bo‘lajak shifokorlarda klinik qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik raqamli texnologiyalari<br>**Samatov Z.Z.** | Pedagogical digital technologies for developing clinical decision-making competence in future physicians<br>**Samatov Z.Z.** | **126-130** |
| **23** | Yuqumli kasalliklar fanini o‘qitishda klinik-profilaktik fikrlash va epidemiologik xavflarni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi<br>**Turdiyev M.N.** | Technology for developing clinical-preventive thinking and epidemiological risk management competencies in teaching infectious diseases<br>**Turdiev M.N.** | **131-136** |
| **24** | Bo‘lajak shifokorlarga raqamli ta’lim muhitida anatomiya fanini o‘qitishninig zamonaviy texnologiyalari<br>**Nishonova D.T.** | Modern technologies of teaching anatomy to future physicians in a digital educational environment<br>**Nishonova D.T.** | **137-142** |
| **25** | Stomatologiya ta’limida valeologik madaniyatni rivojlantirishning integrativ va raqamli pedagogik texnologiyalari<br>**Kamoliddinova I.Sh.** | Ntegrative and digital pedagogical technologies for developing valeological culture in dental education<br>**Kamoliddinova I.Sh.** | **143-148** |
| **26** | Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarda mediasavodxonlik ko‘nikmalarini interfaol ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirish<br>**Temirova Z.A.** | Improving students’ media literacy skills in a digital learning environment based on interactive educational technologies<br>**Temirova Z.A.** | **149-154** |
| **27** | Tibbiy ta’lim muassasalari talabalarida klinik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi<br>**Kamalova D.A.** | Technology for developing clinical thinking competence among students of medical educational institutions<br>**Kamalova D.A.** | **155-159** |
| **28** | Charlz Dikkensning ijodida idio-stilning rivojlanishi: lingvostilistika tahlili<br>**Rahmatilloyeva R.S.** | The development of idio-style in charles dickens’s creative work: linguastylistic analysis<br>**Rahmatilloeva R.S.** | **160-167** |

**UDK: 42:07** https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.3917

# INGLIZ GAZETA SARLAVHALARINING TARJIMA XUSUSIYATLARI: LINGVOSTILISTIK TAHLIL

**Sh.Z.Husanova**[1], **N.A.Isakova** [2]
[1]Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.
[2]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

**Sh.Z.Husanova** Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

Kelib tushgan: 17.03.2026
Ko‘rib chiqildi: 30.03.2026
Qabul qilindi: 18.04.2026
Nashr qilindi: 30.05.2026

Nashriyotchi: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

**Annotatsiya.** Maqolada ingliz tilidagi gazeta sarlavhalarining lingvistik va uslubiy xususiyatlari hamda ularning o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Gazeta sarlavhalariga xos bo‘lgan qisqalik, ellipsis, inversiya, metaforik ifodalar va konnotativ ma’nolar tarjimada ekvivalensiya va adekvatlik masalasini murakkablashtirishi ko‘rsatib beriladi. Ushbu tadqiqotda dinamik ekvivalensiya, adaptatsiya hamda kompensatsiya strategiyalarining samaradorligi ingliz gazeta sarlavhalari misolida yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** gazeta sarlavhasi, jurnalistik tarjima, lingvostilistik tahlil, ekvivalensiya, adekvatlik, adaptatsiya.

## Особенности перевода заголовков английских газет: лингвистико-стилистический анализ

**Аннотация.** В статье анализируются лингвистические и стилистические особенности заголовков английских газет, а также проблемы, возникающие при их переводе на узбекский язык. Показано, что такие характеристики газетных заголовков, как лаконичность, эллипсис, инверсия, метафоричность и коннотативное значение, усложняют достижение эквивалентности и адекватности перевода. На основе примеров английских газет рассматривается эффективность стратегий динамической эквивалентности, адаптации и компенсации.

**Ключевые слова:** газетный заголовок, журналистский перевод, лингвостилистический анализ, эквивалентность, адекватность, адаптация.

## Translation features of English newspaper headlines: linguistic-stylistic analysis

**Abstract.** The article analyzes the linguistic and stylistic features of English newspaper headlines and the problems that arise in their translation into Uzbek. It is shown that such characteristics of headlines as brevity, ellipsis, inversion, metaphorical expressions, and connotative meanings complicate the achievement of equivalence and adequacy in translation. The effectiveness of dynamic equivalence, adaptation, and compensation strategies is illustrated through examples from English newspapers.

**Keywords:** newspaper headline, journalistic translatior linguostylistic analysis, equivalence, adequacy, adaptation.

**Kirish.** XXI asrda globallashuv jarayonlari jadallashgani sari ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotida yetakchi axborot manbai sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, ingliz tilidagi gazeta va onlayn nashrlar ([2] BBC News, [7] The Economist, [8]The Guardian, [9]The New York Times) xalqaro siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni yoritishda asosiy kommunikativ platformaga aylangan. Ushbu nashrlar orqali tarqatilayotgan axborot boshqa tillarga, jumladan o‘zbek tiliga tezkor va adekvat tarzda tarjima qilinishi bugungi tarjimashunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Gazeta matnining eng muhim va funksional jihatdan faol elementi — sarlavha bo‘lib, u matn mazmunini ixcham shaklda ifodalash, o‘quvchi e’tiborini jalb qilish va axborotni baholovchi ruhda taqdim etish vazifasini bajaradi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, sarlavha nafaqat axborot berish, balki o‘quvchini ma’lum pozitsiyaga yo‘naltirish, muayyan munosabatni shakllantirish vositasi hamdir [3].

Ingliz gazeta sarlavhalari o‘ziga xos lingvistik va stilistik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularda grammatik to‘liqsizlik (ellipsis), fe’l zamonlarining soddalashtirilgan shakllari, inversiya, metaforik va konnotativ birliklar keng qo‘llanadi. Masalan, “Markets on edge after Fed move” kabi sarlavhada fe’l va bog‘lovchi birliklarning tushirib qoldirilishi axborotni maksimal darajada qisqa va dinamik tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Biroq bunday konstruksiyalarni o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilish mazmunning noaniq yoki sun’iy chiqishiga olib kelishi mumkin.

Tarjimashunoslikda gazeta sarlavhalarini tarjima qilish masalasi alohida ilmiy muammo sifatida qaraladi. P. Nyumark jurnalistik matnlarni tarjima qilishda kommunikativ yondashuv ustuvor bo‘lishi zarurligini ta’kidlab, sarlavhalar tarjimasida shakliy moslikdan ko‘ra, funksional va semantik ekvivalentlik muhimligini qayd etadi [1]. E. Nayda esa bunday holatlarda dinamik ekvivalensiya tamoyili asosiy mezon bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi, ya’ni tarjima o‘quvchida asl matn o‘quvchisida yuzaga kelgan ta’sirga yaqin effekt uyg‘otishi kerak [10].

Ingliz gazeta sarlavhalarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda faqat lingvistik omillar emas, balki ekstralingvistik omillar: madaniy kontekst, siyosiy vaziyat, ijtimoiy realiyalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, “White House faces backlash” sarlavhasi o‘zbek tiliga tarjima qilinayotganda “Oq uy” birikmasining AQSh prezident administratsiyasini anglatishi kontekstual izoh orqali hisobga olinishi lozim. Aks holda, sarlavhaning siyosiy mazmuni to‘liq ochilmay qoladi.

M. Beykerning fikricha, jurnalistik tarjimada aynan sarlavhalar “eng yuqori darajadagi yo‘qotish xavfi”ga ega bo‘lgan birliklar hisoblanadi, chunki ularda qisqalik, baholovchi ma’no va madaniy kodlar birlashgan bo‘ladi [4]. Shu sababli sarlavhalarni tarjima qilishda adaptatsiya, kompensatsiya va funksional moslashuv strategiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, ingliz gazeta sarlavhalarining lingvostilistik xususiyatlarini aniqlash va ularni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonidagi muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb vazifa bo‘lib, mazkur maqola aynan ushbu masalaga bag‘ishlanadi.

Gazeta sarlavhalari jurnalistik matnning eng muhim strukturaviy komponenti bo‘lib, ularning asosiy vazifasi axborotni maksimal darajada qisqa, lo‘nda va ta’sirchan shaklda yetkazishdan iborat. Shu sababli ingliz gazeta sarlavhalari umumadabiy tildan farq qiluvchi, o‘ziga xos lingvistik tizimga ega. Tadqiqotchilar bu hodisani “headline language” yoki “headlinese” atamasi bilan izohlaydilar [3].

Ingliz gazeta sarlavhalariga xos eng muhim belgilaridan biri — grammatik tejamkorlik hisoblanadi. Bu tejamkorlik, avvalo, artikl, yordamchi fe’l va bog‘lovchilarning tushirib qoldirilishi (ellipsis) orqali namoyon bo‘ladi. Masalan:

*“Prime Minister under fire over reforms”*

Ushbu sarlavhada is yordamchi fe’li tushirib qoldirilgan bo‘lib, mazmun kontekst orqali anglashiladi. O‘zbek tiliga tarjima jarayonida esa bu grammatik bo‘shliqni to‘ldirish zarurati tug‘iladi:

*“Bosh vazir islohotlar sabab tanqid ostida qoldi.”*

Tilshunos M. Yo‘ldoshevning ta’kidlashicha, sarlavhalardagi bunday qisqartirishlar matnning informativligini kamaytirmaydi, aksincha, uning ekspressivligini oshiradi va o‘quvchi e’tiborini jalb etadi [12].

Ingliz gazeta sarlavhalarida keng uchraydigan yana bir xususiyat — fe’l zamonlarining soddalashtirilgan shaklda qo‘llanishidir. Xususan, hozirgi zamon shakli o‘tgan yoki kelasi zamon ma’nosida ishlatiladi:

*“President meets EU leaders”*

Mazkur sarlavha voqea allaqachon sodir bo‘lgan bo‘lsa-da, hozirgi zamon shakli axborotni jonli va aktual ko‘rsatish vazifasini bajaradi. Bu hodisa jurnalistik diskursning dinamik tabiatidan kelib chiqadi [1].

Shuningdek, ingliz gazeta sarlavhalarida inversiya hodisasi faol qo‘llanadi. So‘z tartibining o‘zgarishi sarlavhaning emotsional va ekspressiv ta’sirini kuchaytiradi:

*“Gone are the days of cheap energy”*

Bunday sintaktik qurilmalarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda so‘z tartibini to‘liq saqlash ko‘pincha imkonsiz bo‘lib, mazmuniy moslik ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Leksik jihatdan ingliz gazeta sarlavhalari qisqa, ko‘p ma’noli va baholovchi birliklar bilan ajralib turadi. Ularda neologizmlar, qisqartmalar (acronyms), siyosiy va iqtisodiy terminlar faol ishlatiladi: Brexit, GDP, NATO, Fed va boshqalar. O‘zbek tilshunosi Sh. Rahmatullayev qayd etishicha, bunday birliklar tarjimada to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki funksional ekvivalent asosida berilishi maqsadga muvofiqdir [6].

Demak, ingliz gazeta sarlavhalari lingvistik jihatdan grammatik tejamkorlik, zamonlarning soddalashtirilishi, inversiya va leksik zichlik kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ushbu belgilar tarjimada alohida yondashuvni talab etib, so‘zma-so‘z tarjimaning yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Ingliz gazeta sarlavhalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida bir qator lingvistik va lingvostilistik muammolar yuzaga keladi. Ushbu muammolar sarlavhaning ixchamligi, konnotativ yuklamasi va madaniy kodlarga boyligi bilan bevosita bog‘liq. Tarjimashunoslar ta’kidlashicha, aynan sarlavha jurnalistik matnning “eng muammoli zonasi” hisoblanadi, chunki u minimal til birliklari orqali maksimal axborot va ta’sirchanlikni mujassamlashtiradi [3].

**1. Grammatik to‘liqsizlik (ellipsis) va fe’lning tushirib qoldirilishi.**

Ingliz gazeta sarlavhalarida yordamchi fe’llar, bog‘lovchilar va ba’zan asosiy fe’lning o‘zi ham tushirib qoldiriladi. Bu holat ingliz tilida tabiiy bo‘lsa-da, o‘zbek tilida grammatik jihatdan to‘liq gap talab etiladi. Misol:

*“Markets under pressure after rate hike”*[8].

Mazkur sarlavhada are yordamchi fe’li tushirib qoldirilgan. Agar so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, mazmun noaniq chiqadi. Shu sababli tarjimada grammatik to‘ldirish zarur:

*“Foiz stavkalari oshirilgach, bozorlar bosim ostida qoldi.”*

P. Nyumarkning fikricha, bunday holatlarda tarjimon shakliy ekvivalentlikdan voz kechib, kommunikativ ekvivalensiyani ta’minlashi lozim [1].

**2. Ko‘p ma’nolilik va konnotatsiya muammosi.**

Ingliz gazeta sarlavhalarida ko‘p ma’noli fe’llar va baholovchi birliklar keng qo‘llanadi. Bunday birliklar sarlavhaga emotsional va ideologik rang beradi, biroq tarjimada bu konnotatsiya yo‘qolib ketish xavfi mavjud. Misol:

*“Government under fire over education reforms”*[9].

Bu yerda under fire iborasi “o‘qqa tutilmoqda” emas, balki “keskin tanqid qilinmoqda” degan metaforik ma’noda ishlatilgan. So‘zma-so‘z tarjima mazmunni buzadi. To‘g‘ri variant:

*“Ta’lim islohotlari sabab hukumat keskin tanqid ostida qoldi.”*

M. Baker ta’kidlaganidek, sarlavhalardagi konnotativ birliklar tarjimada funksional ekvivalent orqali berilishi lozim [4].

**3. Madaniy va siyosiy realiyalar (realia) muammosi.**

Ingliz tilidagi gazeta sarlavhalarida ko‘pincha muayyan madaniyat yoki siyosiy tizimga xos tushunchalar uchraydi. Bunday realiyalarni izohsiz tarjima qilish o‘quvchi uchun tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin. Misol:

*“White House backs new climate bill”* [2].

Bu yerda White House AQSh prezident administratsiyasini anglatadi. O‘zbek tilida esa bu metaforik ma’no izoh talab qiladi:

*“AQSh prezident administratsiyasi yangi iqlim qonunini qo‘llab-quvvatladi.”*

Vlahov va Florin realiyalar tarjimasida izohlash yoki adaptatsiya usulini eng samarali yo‘l sifatida ko‘rsatadi [11].

**4. Sarlavhalardagi so‘z o‘yini (wordplay) va metaforalar.**

Gazeta sarlavhalarida so‘z o‘yini va metaforik ifodalar o‘quvchi e’tiborini tortish vositasi sifatida keng qo‘llanadi. Biroq bunday birliklar tarjimada ko‘pincha yo‘qotishga uchraydi. Misol:

*“Britain at a crossroads”* [7].

Bu sarlavha to‘g‘ridan-to‘g‘ri “chorrahada” degan ma’noni bermaydi, balki “muhim tanlov arafasida” degan ramziy ma’noga ega. Mos tarjima:

*“Buyuk Britaniya muhim tanlov arafasida.”*

E. Nayda fikricha, metaforali sarlavhalarda dinamik ekvivalensiya asosiy mezon bo‘lishi kerak [10].

Ingliz gazeta sarlavhalarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda so‘zma-so‘z yondashuv aksariyat hollarda yetarli natija bermaydi. Buning sababi sarlavhalarning qisqa, konnotativ va stilistik jihatdan yuklangan bo‘lishidir. Shu bois zamonaviy tarjimashunoslikda gazeta sarlavhalarini tarjima qilishda maxsus strategiyalardan foydalanish zarurati ta’kidlanadi. Ushbu bo‘limda ingliz gazeta sarlavhalarini tarjima qilishda eng samarali deb e’tirof etilgan strategiyalar tahlil qilinadi.

**1. Dinamik ekvivalensiya strategiyasi**

Dinamik ekvivalensiya tarjimada shakliy moslikdan ko‘ra, kommunikativ ta’sirni saqlashni ustuvor qo‘yadi. Ushbu yondashuv E. Nayda tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, tarjima qabul qiluvchida asl matn o‘quvchisida yuzaga kelgan ta’sirga yaqin effekt uyg‘otishi kerakligini nazarda tutadi [10]. Misol:

*“Economy on the brink”*[7].

So‘zma-so‘z tarjima: *“Iqtisodiyot jarlik yoqasida”*

Bu variant o‘zbek tilida sun’iy eshitilishi mumkin.

Dinamik ekvivalensiya asosida: *“Iqtisodiyot inqiroz yoqasida.”*

Bu tarjima sarlavhaning ogohlantiruvchi va baholovchi funksiyasini saqlab qoladi.

**2. Adaptatsiya (moslashtirish) strategiyasi.**

Adaptatsiya strategiyasi sarlavhani maqsad til va auditoriya madaniyatiga moslashtirishni ko‘zda tutadi. Ayniqsa, ingliz gazeta sarlavhalarida uchraydigan siyosiy va ijtimoiy realiyalarni tarjima qilishda ushbu strategiya muhim ahamiyat kasb etadi. Misol:

*“Downing Street faces backlash”*[2].

Bu yerda Downing Street Buyuk Britaniya hukumatini anglatadi.

Moslashtirish asosida tarjima: *“Buyuk Britaniya hukumati keskin norozilikka uchradi.”*

V. Komissarov adaptatsiyani tarjimaning adekvatligini ta’minlovchi asosiy usullardan biri sifatida baholaydi [5].

**3. Kompensatsiya strategiyasi.**

Kompensatsiya strategiyasi tarjima jarayonida yo‘qolgan stilistik yoki emotsional yukni boshqa til vositalari orqali qoplashga xizmat qiladi. Gazeta sarlavhalarida metafora yoki so‘z o‘yini tarjimada to‘liq saqlanmasa, ularning ta’siri boshqa birliklar yordamida tiklanadi. Misol:

*“Markets take a hit”*[8].

Bu yerda take a hit iborasi metaforik ma’noga ega.

Kompensatsiya asosida tarjima: *“Bozorlar jiddiy zarar ko‘rdi.”*

Bu variantda “jiddiy” so‘zi orqali emotsional urg‘u kuchaytirilgan.

P. Nyumarkning fikricha, kompensatsiya tarjimada yo‘qotishlarni minimallashtirishning eng samarali usullaridan biridir [1].

**4. Transkripsiya va izohlash strategiyasi.**

Ba’zi hollarda ingliz gazeta sarlavhalarida uchraydigan qisqartmalar yoki maxsus nomlar tarjimada o‘z holicha saqlanadi, biroq ularning ma’nosi izoh orqali ochib beriladi. Misol:

*“NATO expands eastern presence”*[9].

Mos tarjima: *“NATO Sharqiy Yevropadagi ishtirokini kengaytirmoqda.”*

Bu yerda NATO qisqartmasi o‘z holicha saqlanib, mazmun o‘zbek tilida izohlangan. M. Baker bunday holatlarda terminologik barqarorlikni saqlash muhimligini ta’kidlaydi [4].

Ingliz gazeta sarlavhalarining tarjima xususiyatlarini aniqlashda nazariy qarashlar bilan bir qatorda amaliy tahlil muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bo‘limda yetakchi ingliz nashrlarida e’lon qilingan sarlavhalar tanlanib, ularning o‘zbek tiliga tarjimasi lingvostilistik va funksional jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot materiali sifatida [8] (The Guardian) va [9] (The New York Times) nashrlaridan olingan sarlavhalar asos qilib olindi.

**1-misol.** Ellipsis va grammatik to‘liqsizlik muammosi.

Asl sarlavha:

*“Markets under pressure as inflation rises”*[8].

Ushbu sarlavhada yordamchi fe’l (are) tushirib qoldirilgan bo‘lib, bu ingliz gazeta tiliga xos hodisa hisoblanadi. Sarlavha qisqa va dinamik bo‘lsa-da, o‘zbek tilida grammatik jihatdan to‘liq shakl talab etiladi. Tarjima varianti:

*“Inflyatsiya oshishi fonida bozorlar bosim ostida qoldi.”*

Izoh: Tarjimada fe’l qo‘shish orqali grammatik to‘liqlik ta’minlandi. Shu bilan birga, “as” bog‘lovchisi sabab-oqibat munosabatini ifodalovchi “fonida” birligi orqali berildi. Bu holat P. Nyumark ta’kidlagan kommunikativ tarjima tamoyiliga mos keladi [1].

**2-misol.** Metafora va konnotativ ma’no tarjimasi.

Asl sarlavha:

*“Government under fire over healthcare reforms”*[9].

Bu sarlavhada under fire iborasi metaforik ma’noda qo‘llanib, “keskin tanqid ostida” degan mazmunni anglatadi. Tarjima varianti:

*“Sog‘liqni saqlash islohotlari sabab hukumat keskin tanqid ostida qoldi.”*

Izoh: So‘zma-so‘z tarjima (“o‘q ostida”) mazmunni buzgan bo‘lur edi. Shu sababli metafora o‘zbek tilidagi funksional ekvivalent orqali berildi. M. Bakerning fikricha, bunday holatlarda konnotativ ma’noni saqlash tarjimaning adekvatligini belgilaydi [4].

**3-misol.** Siyosiy realiya va adaptatsiya

Asl sarlavha:

*“White House signals shift in foreign policy”*[8].

Bu sarlavhada White House realiyasi AQSh prezident administratsiyasini anglatadi. Tarjima varianti:

*“AQSh prezident administratsiyasi tashqi siyosatda o‘zgarish bo‘lishini bildirdi.”*

Izoh: Tarjimada realiya bevosita tarjima qilinmadi, balki izohli-adaptatsiyalangan shaklda berildi. Vlahov va Florin bunday yondashuvni realiyalar tarjimasida eng maqbul usul sifatida ko‘rsatadi [11].

**4-misol.** Baholovchi leksika va kompensatsiya.

Asl sarlavha:

*“Economy on the brink as talks collapse”*[9].

Bu sarlavhada on the brink birikmasi ogohlantiruvchi va baholovchi ma’noga ega. Tarjima varianti:

*“Muzokaralar barbod bo‘lishi ortidan iqtisodiyot inqiroz yoqasiga keldi.”*

Izoh: Tarjimada “inqiroz” so‘zi orqali sarlavhaning emotsional yuklamasi kuchaytirildi. Bu kompensatsiya strategiyasiga misol bo‘lib, E. Naydaning dinamik ekvivalensiya konsepsiyasiga mos keladi [10].

**Xulosa.** Mazkur maqola ingliz gazeta sarlavhalarining lingvostilistik xususiyatlari va ularni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlashga qaratildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ingliz gazeta sarlavhalari grammatik tejamkorlik, ellipsis, metaforiklik, baholovchi leksika va madaniy-siyosiy konnotatsiyalarning yuqori darajada jamlangani bilan ajralib turadi. Aynan shu xususiyatlar sarlavhalarni jurnalistik matnning eng murakkab tarjima qilinadigan qismi sifatida namoyon qiladi.

Amaliy tahlil natijalari ingliz gazeta sarlavhalarini so‘zma-so‘z tarjima qilish ko‘pincha mazmuniy va funksional yo‘qotishlarga olib kelishini tasdiqladi. Misol uchun, grammatik to‘liqsizlikka asoslangan sarlavhalar, metaforik va konnotativ birliklar, shuningdek, siyosiy realiyalar o‘zbek tiliga bevosita tarjima qilinganda sarlavhaning kommunikativ ta’siri susayishi aniqlandi. Shuning uchun tarjimada shakliy moslikdan ko‘ra, funksional va kommunikativ moslik ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida ingliz gazeta sarlavhalarini tarjima qilishda dinamik ekvivalensiya, adaptatsiya va kompensatsiya strategiyalari eng samarali usullar sifatida namoyon bo‘ldi. Ushbu strategiyalar tarjimonga sarlavhaning nafaqat axborot mazmunini, balki uning baholovchi, ta’sirchan va pragmatik funksiyasini ham saqlab qolish imkonini beradi. Bu holat E. Nayda va P. Nyumark tomonidan ilgari surilgan kommunikativ tarjima tamoyillari bilan to‘liq mos keladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ingliz–o‘zbek jurnalistik tarjimasida tarjimonning nafaqat lingvistik bilimga, balki madaniy va siyosiy kontekstni chuqur anglash qobiliyatiga ham ega bo‘lishi zarurligini ko‘rsatdi. Gazeta sarlavhalari orqali beriladigan axborot tezkor va ta’sirchan bo‘lgani sababli, tarjimon tomonidan qabul qilinadigan har bir strategik qaror o‘quvchi ongida shakllanadigan tasavvurga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, ingliz gazeta sarlavhalarining tarjima xususiyatlarini o‘rganish tarjimashunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ushbu tadqiqot natijalari jurnalistik tarjimani takomillashtirish, tarjimonlar tayyorlash jarayonida amaliy qo‘llanma sifatida foydalanish hamda keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

## Adabiyotlar


1. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988.
2. BBC News. Online edition.
3. Bell R. Translation and Translating: Theory and Practice. – London: Longman, 1991.
4. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 2011.
5. Komissarov V.N. Teoriya perevoda (Lingvisticheskie aspekty). – Moskva: Vysshaya shkola, 1990.
6. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli lug‘ati va tarjima masalalari**.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.
7. The Economics. Online edition.
8. The Guardian. Online edition.
9. The New York Times. Online edition.
10. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964.
11. Untranslatable in Translation. – Sofia: Nauka i izkustvo, 1980.
12. Yo‘ldoshev M. Matn va uning lingvistik tahlili. – Toshkent: Fan, 2007.

# SAMARQAND UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC REPORTS

Texnik muharrir **Sh.Xoliqulov**

**Muharrirlar:**

I.Sulaymonov - fil.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.d., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent

**Mas'ul muharrir:**

**A. Sh. Yarmuxamedov** - f.-m.f.n.

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 240-38-47, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:
axborotnoma.uz
SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga 30.05.2026-yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00
Buyurtma raqami 845 Adadi 30 nusxa.

ISSN 2181-1296